



INGLIZ TILI DARSLARIDA YOZISH KO'NIKMASINI O'RGATISH

JARAYONIDA ZAMONAVIY INFORMATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jondor district, Bukhara region

teacher of the English language at secondary school 32

Yuldasheva Mavjuda

Annotatsiya: Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda ingliz tili o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida zamонавиy innovatsion texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Ushbu tezishda yozish ko'nikmasini o'rgatish jarayonida bir nechta texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: texnologik vositalar, brainstorming, clock texnologiyasi, case study.

Dunyoda til o'rganish muhim. Ingliz tilini o'rganish esa har qachongidan ham muhimroq. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish (EFL) ikkinchi til sifatida o'rganish (ESL) dan farq qiladi. Chunki dunyo bo'ylab ba'zi davlatlar borki, ingliz tili ikkinchi rasmiy til hisoblanadi va barcha sohalarda, xususan ta'lim sohasida ham ingliz tilini o'rgatish yoki o'rganish jarayonida mana shu xususiyatga ahamiyat beriladi. Tilni chet tili sifatida o'qitiladigan davlatlardagi muhit mutlaqo boshqacha. Prezidentimiz tashabbuslari bilan barcha ta'lim sohasida ingliz tili fani keng o'rgatilmoqda. Shuni hisobga olgan holda mamlakatimiz chet tillarni o'rganishga talab keskin oshib davlatimiz tomonidan til o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda maktablarda zamонавиy kompyuterlar, elektron manbalar, Internetga kirish imkoniyati ortib bormoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat maktab o'quvchilarining mashg'ulotlarining turli bosqichlarida, balki odatiy ingliz tili darslarida hamamalga oshirish mumkin.¹ Yaqin kungacha ingliz tili darslarida innovatsion texnologiyalarni texnik vositalar bilan dars jarayonida qo'llash faqatgina tinglab tushunish (listening) va gapirish (speaking) ko'nikmalaridagina kuzatilardi. Natijada ingliz tili darslari, asosan mana shu ikkita ko'nikmaga tayanib olib borilardi. Tahlillar yetarlicha samara bermagandan keyin yo'l



qo'yilgan kamchilik o'rganildi. Sabab barcha ko'nikmalarni bir yo'sinda olib borilmaganli yoqqol aksini topdi. Endilikda yozish (writing) va o'qish (reading) ko'nikmalariga ham alohida e'tibor berilish kerakligi talab etilmoqda. Darsni qanchalik mahorat bilan tashkil etish – bu o'qituvchining zimmasida.² Yozish ko'nikmasini san'at darajasigacha olib chiqqan o'qituvchi haqiqatan, ijodkordir. Bu faoliyatni amalga oshirish bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi va albatta, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash ishni ancha osonlashtiradi. O'z navbatida kutiladigan natija ham sezilarli darajada oshadi. 1-bosqish. Ma'lumot toplash. Berilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar o'zlari bilgan ma'lumotlarni yozishadi. Bunda vaqtidan unumli foydalanish uchun brainstorming texnologiyasi o'qituvchi tomonidan tavsiya etiladi. Ushbu usul yakka tartibda ham guruh bo'lib ham qo'llanilishi mumkin. 2-bosqich. Klassifikatsiya qilish. Keyingi bosqichda to'plangan ma'lumotlar guruhlarga ajratiladi. Bir necha usullardan foydalanish mumkin. Clock texnologiyasini qo'llash eng samarali hisoblanadi. O'quvchilar juft yoki kichik guruhlarga bo'lingan holatda to'plangan ma'lumotlarni yo'nalishlariga yoki maqsadiga qarab soat shaklida chizib bajaradilar. 3-bosqish. Topshiriqni qismlarga bo'lish. Darsliklardagi istalgan yozish ko'nikmasi yuzasidan berilgan topshiriqni qismlarga bo'lib olinadi -pre (oldingi) yozish topshiriqni berishdan oldin bajarish mumkin bo'lgan faoliyat turlari. Bunga misol tariqasida yangi so'zlar bilan ishslash, kutilayotgan mavzuni rasmlar orqali ko'rsatish, taboo kabi usullardan foydalanish mumkin. -while(ayni bajarish jarayoni)da o'quvchilar turli mashqlarni bajaradilar: fikrlarni moslashtirish (matching), bo'sh joylarni to'ldirish (filling gaps), fikrni davom ettirish (continuing ideas) va boshq. O'qituvchidan topshiriqni tanlashda unumli (productive) yondashuv talab etiladi. Chunki o'quvchining faqatgina topshiriqni bajarishi emas, balki o'zi ham yozish ko'nikmasini shakllantiradigan amaliy faoliyatni olib borishi muhim hisoblanadi. -post (yozib bo'lgandan keyingi) jarayonida asosan individual va juft bo'lib ishslash samarali hisoblanadi. Chunki kichik guruhlarda va guruh bo'lib ishlaganda ba'zi past o'zlashtiruvchi o'quvchialrn xatolarini sezish qiyin. Bu bosqichda muhokama (discussion) va fidbek usullari ayni muddaodir. O'quvchilar istalgan yozuv turini yozib bo'lganlaridan keyin bajarilgan ishni o'qituvchi baholashidan oldin sheringining yoki guruhning fikrini bilish o'quvchi uchun samarali. Agar guruh o'rtasida bo'lsa, og'zaki; agar juft ishlanadigan bo'lsa yozma qilgan



ma'qul. Bu bosqichlarda o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning bilish darajasiga e'tibor berishi lozim. Chunki tanlangan topshiriqlar o'quvchiga mos bulishi bilan birga unda qiziqish ham uyg'otishi lozim. 4-bosqich. Case study. O'quvchilar tomonidan anonim tarzda so'rov nomasi o'tkaziladi. Maqsad esa ularning yozishdagi maommolari yoki kamchiliklarini bilish va ularni bartaraf etish. Mana shu bosqich o'quvchilarning ta'limi innovatsion yondashuv jihatini ochib berishiga qaratiladi.³ Ma'lumki hamma o'quvchilarda kompyuter bo'lmasa ham telefon, deyarli bor va ular xabar (message) yozishni yoki yuborishni juda yaxshi o'zlashtirgan. Shu jihatlarini ijobiy tomonga yo'naltiriladi. O'quvchilarning har birlari pochta yaratadilar va o'zlaridagi yozish ko'nikmasida kuzatiladigan muammoni o'qituvchiga pochta orqali yozadilar. O'qituvchi esa muammolarni umumlashtiradi va sinfni to'rtta guruhga bo'lган holda har bir guruhga bittadan muammo beriladi. Kelgusi darsda Case yechimlari muhokama qilinadi. Topshiriq power point (ppt) usulida tayyorlanadi va guruhlar kesimida guruh a'zolari tomonidan namoyish etiladi. Ushbu bosqich, asosan, yuqori sinf o'quvchilari uchun tavsiya etiladi. Xulosa qilinadigan bo'lsa, yozish ko'nikmasini o'quvchilar tomonidan mahorat bilan bajarilishi o'qituvchining dars davomida qo'llaydigan zamonaviy innovatsion texlogiyalari bog'liq. O'quvchilarni zamon bilan hamnafas ruhda o'qitish juda samarali va unumli ekanligi jahon hamjamiatida, jumladan O'zbekiston ta'lim tizimida yoqqol namoyon bo'lmoqda. Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Q.M.G'aybulov, M.A.Hafizova "Science and Education" p-472,Scientific Journal June 2021.

2.KAREN E. JOHNSON, The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education, Tesol Quarterly. p-235 Vol 40,March 2006
<https://onlinelibrary.wiley.com/journal/15457249>

3.Xotamov Jahongir Saloxiddinovich, INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGLISH TEACHING, "Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari" p-333. <http://www.oriens.uz/>